BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN DARSDAN (SINFDAN VA MAKTABDAN) TASHQARI MASHG'ULOTLAMI TASHKIL ETISH UCHUN TAVSIYALAR

M. Musurmonova
Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika faniga qiziqtirish, o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtirishlari hamda iqtidorlarini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlarni tashkil etishning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilib, tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, matematika, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, o‘quvchilar bilimlari va amaliy ko‘nikmalari, mantiqiy tafakkur.

RECOMMENDATIONS FOR ORGANIZATION OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN PRIMARY SCHOOLS IN MATHEMATICS

M. Musurmonova
Teacher of Chirchik State Pedagogical Institute

ABSTRACT

The article discusses the importance of organizing extracurricular activities in order to attract primary school students to the subject of mathematics, to better master the teaching materials and to develop their skills.

Keywords: Elementary school, students, math, extracurricular activities, students' knowledge and practical skills, logical thinking.

KIRISH

Matematikadan sinfdan tashqari ish deyilganda o`quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog`liq bo`lgan material asosida ixtiyoriylik printsipiga asoslangan mashg`ulotlar tushuniladi.

Sinfdan tashqari ishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o`quvchilarning bilimlari va amaliy ko`nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirish;

- o`quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish;

- matematikaga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish;

- talabchanlik, irodani, mehnatga munosabatni, mustaqillikni, uyushqoqlikni va insoniylikni tarbiyalash.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi:

1. Matematik o`n minutliklar, soatlar.
2. Matematika to`garaklari.
3. Matematik konkurs va olimpiadalar.
4. Qiziqarli matematika kechalari va viktorinalar.
5. Matematik matbuot.
6. Matematik ekskursiya.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. O'z mazmuni bo'icha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bolishi kerak.
2. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.
3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.
4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.
5. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli- tumanligi.

Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan malumotlari etishmaydigan yoki berilgan malumotiari ortiqcha masalalar, mantiqiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar tarixiy malumotlar berish va boshqalar kiradi. ;

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.
2. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, xavaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.

3. Sinfdan tashqari ishlarni o’tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo’ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki o’tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimliligining murakkabligidadir.

Shuni ta'kidlash lozimki, individual va guruhli mashg’ulotlar tizimli ravishda o’tkazilmasligi, aksincha, asosiy ish sinfda bajarilishi kerak. Sinfdan tashqari ish sinfdagi dars shakliga nisbatan bir qator o’ziga xos xususiyatlarga ega:

1. O’z mazmuni bo’yicha u davlat dasturi bilan cheklanmagan, matematik material o’quvchilarning bilimlari va malakalariga mos ravishda berilishi kerak.

2. Boshlang’ich sinflarda bolalarning matematikaga nisbatan to’plangan turg’un qiziqishlari haqida hali gapirib bo’lmaydi.

3. Topqirlik, ziyraklik, tez hisoblashlar, yechishning samarali usullaridan foydalanish va rag` batlantirilishi kerak.

4. Darslar 45 minutga rejalashtirilgan holda sinfdan tashqari mash- g’ulotlar mazmuniga va o’tkazilish shakllariga qarab 10-12 minutga ham, bir soatga ham mo’ljallangan bo’lishi mumkin.

5. Sinfdan tashqari ishlar shakl va turlari (qiziqarli matematika soatlari, to’garaklar, viktorinalar va h.k.) qarab mazmunining turli tumanligi bilan xarakterlanadi.

NATIJALAR

Matematika minutliklarida, topshiriqlarga qiziqish uyg’otish va quvvatlash uchun bu topshiriqlar darslarda beriladigan oddiy matematik topshiriqlarga o’xshash bo’Imasligi kerak.

Mashg’ulot o’tkazish uchun har xil qiziqarli arifmetik va geometrik mazmunli masalalar, qiyinroq masalalar, hazil masalalar, masalalar tuzishga doir masalalar, qiziqarli kvadratlar, rebuslar, topishmoqlar va boshqalar material boiib xizmat qiladi.

Matematik to’garak matematikadan tizimli sinfdan tashqari ishning eng кo’p tarqalgan turidan biri. Uning asosiy vazifasi - matematikaga alohida qiziqishi bor o’quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish.

Matematik to’garak ishi qiziqarli matematika soatlaridan quyidagilar bilan farq qiladi:

Matematika to’garagiga o’quvchilar tanlashda ularning matematikaga nisbatan alohida qiziqishlarini, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Mustaqil ravishda кo’rgazmali qurollar (abaklar, ba'zi o’yiniar uchun misollar yozilgan kartochkalar va boshqalar) tayyorlaydilar, matematika kechalari o’tkazishga puxta tayyorgarlik ko’radilar va hokazo.

Matematika to’garagini o’tkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak. Namuna uchun ikkinchi yarim yillikda 1-sinfda ba'zi to’garak mashg’ulotlarining taxminiy rejalarini keltiramiz:

I. mashg’ulot. 1. Rebuslarni o’ylab topish. 2. Qo’shishga oid qiziqarli masalalar. 3. 100 ichida raqamlashni bilishni tekshirishga oid mashqlar. 4. Topqirlikni talab qiladigan masalalar. 5. Hazil masala. 6. Topishmoqlar. 7. Quvnoq sanoq (20 ichida) o’yini.

II. mashg’ulot. 1. Rebuslarni o’ylab topish. 2. Topqirlikni talab qiluvchi she'riy masalalar. 3. Geometrik figuralarni tahlil qilishga doir mashqlar. 4. Hazil masala. 5. "Sonni to’ldir" o’yini.

III. mashg’ulot. Dars tipidagi to’garak mashg’uloti.

Boshlang’ich sinf matematika darslarida tarixiy materiallardan foydalanish (imkoniyatlari) mazmuni.

MUHOKAMA

Darhaqiqat, o’zbek xalqining buyuk mutafakkirlari ham uzoq o’tmishdayoq olib borgan tadqiqotlari va amalga oshirgan kashfiyotlarida insonlarni odobli, ma'naviyati yuksak, komil, mehnatsevar, vatanparvar bo’lib tarbiyalanishiga yangi g’oya va ta'limotlarni yaratganlar. Bular. Muso al-Xorazmiy (783-850), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037); Umar Hayyom (1048-1131); Nasriddin at-Tusiy (1201-1274); Mirzo Ulug’bek (1394-1449), G’iyosiddin al-Koshiy; Ali Qushchi (1402-1474) va boshqalarning bizga qoldirgan boy ilmiy ma’naviy meroslari fikrimizga asos bo’ladi. Bu allomalarimizning asarlarida bolalarning o’qishi, mehnati, odobi va bu ishda muallimlarning vazifalariga katta e'tibor berilgan.

Jumladan, Nasriddin at-Tusiy fikri bo’yicha o’qituvchi o’quvchilarni aql-zakovatiga ta'sir qilishi uchun o’quvchilar ishonchini qozonish va qalbidan joy olish mas'uliyatini his qilishi lozim.

Abu Nasr Forobiy o’qituvchi faoliyatida yoshlarning axloqiy me'yorlari, amaliy ko’nikma va malakalarini o’zlashtirishga yo’naltirilganligi asosiy vazifalardan biri ekanligini ifodalaydi.

Ibn Sino fikricha, tarixiy manbalarni bilish olijanob va foydali faoliyatdir. U ilm va narsalarning inson aqli yordami bilan o’rganilishi shaxs faoliyatida muhim hisoblanishini ta'kidlab o’tadi.

Abu Rayhon Beruniy pedagogik ijodida tarbiyaning maqsadi, vazifalari va o’rni, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik asosida qurilgan. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik g’oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir.

Ota-bobolarimizdan qolgan ilmiy merosni chuqur o’rganib, uni ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish har bir ma'naviyatli va ijodkor mutaxassisning muqaddas burchidir. Quyida biz boshlang’ich sinflarda matematikadan dars samaradorligini oshirishga doir to’garak mashg’ulotini dars tipida o’tkazish mumkin bo’lgan namunasini tavsiya etamiz.

Mavzu: Vaqt bilan tanishtirish

Mashg’ulot maqsadi:

1. O’quvchilarni soatning yaratilishi tarixi bilan tanishtirish.

2.Bolalarni kundalik hayotda soatdan foydalanishga o’rgatish.

3.Masalalar yechish orqali bolalar bilimini oshirish.

4.Arifmetik masalalarni yechish.

5.O’quvchilar qiziqishini rivojlantirish.

Jihozlar:

1 .Har xil soat maketlari.

2.Sandiqcha.

3.Masala yozilgan ко’rgazma.

Metodlar: ко’rgazmalar, hikoya, suhbat orqali bayon qilish.

I. Tashkiliy qism.

II. Mashg’ulotning borishi.

O’qituvchi hikoyasi.

Odamlar vaqtni o’lchash uchun soat yaratdilar. Oldin quyosh soati paydo bo’ldi. Ulardan faqat kunduzi foydalanishar edi.

Misr quyosh soatlarida 2 ta uzun taxtacha burchak shaklida mustahkamlangan. Ertalab quyosh chiqishi bilan uzun taxtachada soyani belgilashgan. Bu vaqtni ertalab soat 6:00 deb hisoblashgan. Keyin ertalabki soyaning uzunligini 6 qismga bo’niishgan.

Buning natijasida hammasi 12 soat bo’lib, 6 soat kunduz, 6 soat kechqurun kelib chiqqan. Keyinchalik boshqa soatlar paydo bo’ldi. Ular kechki vaqtni ham aniqlash imkonini berdi. Masalan: suv soatlari, qum soatlari, mexanik va elektron soatlar bor.

Hozirgi zamon soatlarining siferblati 12 ga bo’lingan. Har bo’limning oldiga 1 dan 12 gacha yozilgan. Soatning kichkina strelkasi 1 soatdan 2 songa 1 soatda o’tadigan qilib tuzilgan. Soatning katta strelkasi 1 soatning ichida barcha sonlarni bosib o’tadi.

1. Masalalarni yeching:

1. Soatlarga qarab vaqtni aniqlang.
2. Quyidagi vaqtlarda soat strelkalari qanday joylashadi:

a) 4 dan 15 minut o’tganda?

b) 9 dan 48 minut o’tganda?

a) 15 dan 55 minut o'tganda?
b) 22 dan 10 minut o'tganda?

3. Samolyot soat 7 dan 15 minut o'tganda havoga ko'tarildi, soat 10 dan 20 minut o'tganda u yerga qaytib qo'ndi. Samalyot havoda qancha vaqt uchgan?.

4. Poyezd ertalab soat 9 dan 18 minut o'tganda yo'lga chiqdi, manzilga soat 21 dan 56 minut o'tganda etib keldi. Poyezd qancha vaqt yo'1 yurgan?

5. Teatr tomoshasi kechqurun soat 10 dan 50 minut o'tganda tugadi. Agar u 3 soat 20 minut davom etgan bo'Isa, tomosha qachon boshlanganligini aniqlang.

6. Taqqoslang.

3 soat va 48 minut
36 sekund va 48 minut
5 soat 6 min va 56 minut
20 min 40 sek va 200 sek
3 min 8 sek va 48 sekund

2. Amallarni bajaring:

A) 9-4:1+(70-8-8)-1-0.-3 5
B) 729- (5 - 5) + (27:3 + 6) - 48 : (2-3)
V) 8000 : 4 : 20 - 1- (20-7 - 50): (705 - 5)
G) 90-50 + (80-4 + 0-1): 10 - (9-9 : 3 +1)
D) 19-0+(13- 8): 5-296-86:1
E) (48 + 5 : 5) : 7 - 6 • (29 - 28): 3

3. «Bolalar, biz arifmetik misollar yechayotganimizda sehrli sandiqcha paydo bo'lib qolgan. Uning oldida ko'rgazma joylashgan bo'lib, unda topshiriqlar berilgan. Shu topshiriqni yechish orqali sehrli sandiqcha ochilishi mumkin ekan.»

1. Ko'paytma va bo'linma qoidalariga doir misollar yechishimiz kerak.

4900: 700=
800-4= 360 : 69 =
70-900= 5600:8 =
5000-4= 24000: 30 =

uyga topshiriq:

O'qituvchi uy vazifasini doskaga yozib qo'yadi.

Bolalar biz bugungi darsda soatning yaratilishi tarixi biian tanishib oldik, kundalik hayotda soatdan foydalanishni o'rganib oldik. O'zlaring uyda bilimlaringizni tekshirib ko' ringlar.

Matematika to'garagi va undan ko'zda tutilgan maqsad matematikaga bo'lgan qiziqishni orttirish, fikrlashni faollashtirish, matematik qobilyatni rivojlantirish,

mustaqil ishlash malakasini hosil qilish, o'z kuchiga ishonchni va oldindan paydo bo'ladigan qiyinchilikni engishga o'rgatib borishdan iborat.

To'garak ishi mazmuniga masala va misollar yechish, o'quvchilarning fikrlashini o'stiruvchi savollarni kiritish, konkretlikdan abstraktlikka o'tish qobiliyatini hosil qilish va zaruriy umumlashtirshlarga olib kelish kiradi.

Qiziqarli xarakterdagi mashqlarni bajarish asosiy rol o'ynaydi. Unga arifmetik fokuslar, qiziqarli kvadratlar, topishmoqlar, matematik o'yinlar va boshqalar kiradi.

To'garak mashg'ululoti har oyda ikki marta o'tkazilishi va 2-sinfda 25-35, 3- 4-sinflarda 40-45 minut davom etishi maqsadga muvofiqdir. Matematika to'garagida quyidagi ishlar olib borilishi ko'p uchraydi:

1. Mustaqil misol va masalalar yechish.
2. Misol va masalalarni har xil metodlar bilan yechish.

Masalan, 1 raqamidan boshlab, sonlar yordamida arifmetik amallar bajarib, I sonini hosil qilish.

l+2+3+4+5-6-7+8-9=l 1-2- (3+4)+5+6-7-8-91

(12-3+4-5+6): 7+8-9=l 1 +2+3+4-5+6+7-8-9= 1

3. Ko'rgazmalilikni mustaqil qo'llash.

Misol. Nonning o irligi 1/4 qismigacha 90 gr keladi. Nonning og'irligi qancha?

To'garak davomida matematik fokus, o'yin, topishmoqlar mashljulotning qiziqarli o'tishiga yordam beradi.

Misol, natural sonlar to'plamining tartiblanganlik xossasiga doir fokuslar.

Maqsad: sanash malakasini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, qiziqarli kvadrat (I-2-sinfiarda), 9 ta katakka 9 ta ketma-ket sonni yoziladi.


Misol, 4 dan 12 gacha 20 sonni hosil qilish uchun 4 dan boshlab son qo'shiladi.

Matematik tanlovlar:

Tanlovlar har xil qiyinlikdagi masalalarni yechish, qiziqarli fikrlaydigan masalalar va topshiriqlami bajarishdagi musobaqalar bo'lib hisoblanadi. Asosan o'quvchilarning xohishi bo'yicha masalalar yechishda o'z kuchini sinaydigan, yetarlicha tayyorgarligi borlari ishtirok qiladi.

Quyida 2-sinflarda tanlovlar o'tkazishga misollar keltiramiz. 2-sinf (4-chorak).

1. Ikki o'ram jun ipdan 3 ta qoiqop to'qish mumkin. Shunday 9 ta qo'lqop to' qish uchun necha o'ram ip kerak?
2. Vali va Salimning 30 ta konfeti bor edi. Ular baravardan yeyishgandan keyin Valida 9 ta, Salimda 5 ta konfet qoldi, ular qanchadan konfet eyishgan?
3. Shaklda nechta uchburchak bor?



4. 1,2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 sonlari berilgan. Bu qatordagi sonlardan uchtalab qo'shganda 15 soni chiqadigan nechta misol keltirish mumkin.

Tanlov mavzusi va uni tkazish vaqti oldindan belgilanadi:

1. Murakkab hisoblashlarni eng qulay usul bilan taqqoslash yordamida hisoblash.
2. Mantiqiy masala va mashqlarni.
3. Topqirlik, ziyraklikka oid mashqlar.
4. Hisoblashlari murakkab bo'lgan masalami.
5. Sharq mutafakkirlari merosiga oid bayon qilishlar, algebraik, geometrik shakllar mazmunini yoritishga oid topshiriqlar.

Matematik olimpiadalar

Olimpiadalar tanlovlarga qaraganda keng ко'lamda o'tkaziladigan va matematika o'rganishda o'quvchilar erishgan muvaffaqiyatlarni namoyish qiladigan ishdir.

Olimpiada qatnashchilarining tarkibiga bog'liq holda maktab ichida, tuman va shaharlarda o'tkazish mumkin. Olimpiadani 4- sinfdan boshlab o'tkazib, g'oliblar maktabning devoriy gazetalarida va o'quvchilar yig'ilishlarida rag'batlantiriladi.

Matematik gazeta va viktorinalar

Gazeta, viktorinada har xildagi matematik mazmunni o'z ichiga olgan topishmoq, misol va topshiriqlar rasmlarda berilib, qiziqtirish xarakteridab ladi.

Viktorinada esa o'quvchilarga yechish tavsiya qilinadigan top- shiriq beriladi. Javobiar belgilangan vaqtda quvchiiarga yetkazi- ladi.

Matematik viktorinalar - gazetalardan farqli ravishda faqat

O'quvchilarga yechish uchun berilgan masalalar va savollardan iborat biladi. Javobiar yozma ravishda ma'lum vaqt ichida o'qituvchi tomonidan bolib o'quvchi aniqlanib, e'lon qilib boriladi.

Matematik devoriy gazeta, viktorinalar, odatda matematik burchak deb ataluvchi joyga osib q Jyiladi, bu burchakda Vatanimiz yu- tuqlarini ifodalovchi sonli ma'lumotlar ham berib boriladi. "Bi- lasizmi?" ruknida qiziqarli materiallar beriladi. Masalan:

1. Odamning bo'yi bir kunda 1 sm dan 6 sm gacha o'zgarishi mumkin.
2. Dunyodagi eng uzun temir yo'l 9302 km ni tashkil etadi.

3. Dunyoda okeanlar suvida 13300 min tonnagacha kumush bor.

Matematika burchagini tashkil qilishni o’quvchilar va ularning ota-onalari faoli yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ekskursiya o’tkazishdan maqsad nimaligi bolalarga tushunarli bo’lishi nihoyatda muhimdir, shunday billganda bolalar oldindan nima qilishlari kerakligini va o’zlarini qanday tutishlari kerakligini bilib oladilar.

XULOSA

Maktabning joylashgan o’rniga qarab bolalar bilan har xil ustaxonalarga, fabrikalarga, kombinatlarga, fermalarga, shirkat xo’jaligi va fermer xo’jaligi hamda boshqa joy larga ekskursiyalar o’tkaziladi.

Quriiish materiaiidan, mashinaiardan, ishchi kuchlaridan va boshqa narsalardan foydalanish haqida masalalar tuzish va yechish mumkin. Shunday masalalardan ba'zilarini keltiramiz:

1. Bir soatda ekskavator 4 m uzunlikda poydevor chuqurligini kavlaydi. Shunday ish unumi bilan u 7 soatda qancha chuqurlik (ra) kovlaydi? :

2. Qurilishga yuk tashishda 4 ta avtomashina ishlamoqda. Ulam- ing har birida bitta haydovchi va ikkita yukchi ishlaydi. Material tashishda hammasi b lib qancha odam band?

Quriiish materiallaridan mehnat darslari uchun stendiar tayyorlashda foydalanish mumkin, bunda binolarning maketlarini tayyorlash ham mumkin.

REFERENCES

1. Barkamol avlod — 0 ‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: «Sharq», 1997.
2. Jumayev M . Bolalarda matematik tushinchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodakasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2009.
3. Jum ayev M. va boshqalar. Matematika o‘qitish metodikasi. - T.: «Ilm-Ziyo», 2003.
4. Bikbayeva N. U., Sidelnikova R. I., Adambekova G. A. Boshlang‘ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. 0‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo'llanma. — T.: «0‘qituvchi», 1996.
5. Жикалкина Т.К. Игровые и занимателные задания по математике- М. “Просвещение”, 1989.